



## Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [30660-4540 \(online\)](https://doi.org/10.30660/4540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 9

Published: 07.12.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



Ilashov Shohjahon Xurshid o'g'li<sup>1</sup>,  
Ibrohimova Mohinur Hamidullo qizi<sup>1</sup>,  
Xusanov Saydulloxon Ilyosxon o'g'li<sup>2</sup>  
Andijon davlat pedagogika instituti<sup>1</sup>  
Andijon davlat universiteti<sup>2</sup>  
Uzbekistan

### PIRROFIT (PYRROPHYTA) SUVO'TLARINING TABIATDAGI O'RNI TARQALISHI VA AHAMIYATI

**Abstract:** This article provides information on the morphology, anatomy, systematics, characteristics and importance of pyrrhotite algae. Pyrrophyte algae are mainly monad, some representatives have coccoid, palmelloid, filamentous structures, and many pigments, including carotene, xanthophyll, peridinin, are found in their composition. The cell structure is dorsoventral, and the membranes contain ejectosome hairs.

**Keywords:** dorzoventral, periplast, mastigonema, ejectosoma, mesokaryotic, histone, theca, puzule, aplonospora, epival, antapical, hypoal.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Pirrofit suvo'tlarning morfologiyasi, anatomiyasi, sistematikasi, o'ziga xosligi va ahamiyati haqida ma'lumot berilgan. Pirrofit suvo'tlar asosan monad, ayrim vakillari kokkoid, palmelloid, ipsimon tuzilishli bo'lib, tarkibida ko'plab pigmentlar jumladan, karotin, ksantofil, peridinin uchraydi. Hujayra tuzilishi dorzoventral bo'lib, membranalarida edjektosoma tukchalari mavjud.

**Kalit soʻzlar:** dorzoventral, periplast, mastigonema, edjektosoma, mezokariotik, giston, teka, puzul, aplonospora, epival, antapikal, gipoval.

**Аннотация:** В статье представлена информация о морфологии, анатомии, систематике, характеристике и значении пиррофитных водорослей. Водоросли-пиррофиты представляют собой преимущественно монады, некоторые представители имеют кокковидное, пальмеллоидное, нитевидное строение, в их составе обнаружено множество пигментов, в том числе каротин, ксантофилл, перидинин. Строение клеток дорсовентральное, мембраны содержат волоски эктосом.

**Ключевые слова:** дорзовентральный, перипласт, мастигонема, эктосома, мезокариотическая, гистон, тека, пузула, аплоноспора, эпивал, антапикальный, гиповал.

**Language:** Uzbek

**Citation:** Ilashov , S., Ibrahimova , M., & Khusanov , S. DISTRIBUTION AND SIGNIFICANCE OF PYRROPHYTA ALGAE IN NATURE. Universal International Scientific Journal, 1(9), 37–42. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1207>

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14327455>

Boʻlim vakillari, asosan, monad tuzilishdagi suvoʻtlaridan iborat boʻlib, kokkoid, palmelloid, va ipsimon tuzilishli vakillari ham uchraydi. Hujayrasi oʻziga xos tuzilishga ega boʻlib, unda oʻsimliklar va hayvonlarga xos belgilar mavjud. Boʻlimning koʻplab suvoʻtlarining hujayrasi qattiq poʻst bilan oʻralgan. Xromatofori tarkibida xlorofillardan tashqari karotin, ksantofil, peridin pigmentlari mavjud boʻlib, ular hujayraga qoʻngʻir, jigarrang, sariq, va tillarang tus berib turadi. Ularda assimilyatsiya mahsuloti sifatida hujayrasida kraxmal moddasi toʻplanadi. Baʼzi vakillarida hayvonlarga xos boʻlgan tuzilmalar – oziqlanishga moslashgan paypaslovchi, sanchuvchi va yutuvchi soxta oyoqlarning mavjudligi bilan ham ajralib turadi.

Pirrofit suvoʻtlari tallomi uchun asosiy farqlovchi xususiyat bu ular monad tuzilishli hujayrasining dorzoventral xolatdaligi, yani orqa va qorin tomonining bir-biridan farq qilishi hisoblanadi. Undan tashqari, hujayra ekvatori boʻylab oʻtgan uzun chuqurchasining ustida boʻgʻimining mavjudligi ham asosiy xos belgisi sanaladi.

Pirrofit suvoʻtlari 2 ta katta sinfga boʻlinadi:

1. Kriptofitsimonlar sinfi – Cryptophyceae
  2. Dinofitsimonlar sinfi – Dinophyceae
- Kriptofitsimonlar sinfi vakillari asosan, xovuz va ifloslangan suvlarda keng tarqalgan, baʼzan, katta suv havzalari va koʻllarda ham uchraydi. Hujayrasi monad shaklda, ayrimlari kokkoid va palmelloid tuzilishga ega. Hujayrasi dorzoventral tuzilishga ega boʻlib, periplast

bilan o'ralgan. Hujayraning old qismida bitta qo'ng'ir tusli chuqurchasi mavjud. Undan tashqari, yana hujayra old qismida 2 ta lentasimon, bir-biriga dayarli teng bo'lgan xivchini bo'lib, ularda har birida 2 qator mastigonema joylashgan. Xromatofori 1 ta yoki ko'p bo'ladi. Xlorofill "a", "c", undan tashqari karotin, ksantofill, ba'zilarida fikotsianin va fikoeritrin pigmentlari mavjud. Assimilyatsiya maxsuloti sifatida hujayrada kraxmal, yog, xrizolamirin to'planadi. Hujayrasi bitta yadroli. Plastidasi ichida ko'zcha bo'ladi. Undan tashqari edjektosoma deb ataluvchi sanchuvchi tukchalari mavjud. Ular zich o'ralgan lentasimon bo'lib, kamera ichiga joylashgan bo'ladi. Hujayra ta'sirlanganda kamera ochilib, undagi edjektosoma teshik orqali otilib chiqadi. Edjektosomalar yirik (bo'g'izda) va kichik hajmli (periplast ustida) bo'ladi.

Kriptofitsimonlar hujayraning oddiy bo'linishi orqali ko'payadi. Eng keng tarqalgan vakili – kriptomonas (*Cryptomonas*).

Dinofitsimonlar sinfiga hujayra yadrosi oddiy mezokariotik tuzilgan suvo'tlari kiradi. Bunday suvo'tlari yadro xromosomasi tarkibida giston moddasi bo'ladi. Mitoz davrida xromosoma iplari bo'sh ixtisirlashgan bo'lib, uzunasiga cho'ziladi va markazga to'planadi hamda doimo interfazada saqlanib qoladi. Ushbu sinfnning ko'plab vakillari monad tuzilishli, ayrimlari esa murakkab tuzilgan.

Murakkab tuzilganlarida zoospora harakat qilish xususiyatini saqlab qolgan. Hujayra dorzoventral tuzilgan, 2 ta egatchali bo'lib, hujayrani aylanma yoki spiral shaklda o'rab, bir-birini kesib o'tgan joyda chiqadi. Xivchinlari 2 ta bo'lib, uzunligi va tuzilishi har xil. Silliq xivchin bo'yiga cho'zilgan egatda, ikkinchisi lentasimon va mastigonemaga ega bo'lgan ko'ndalang egatda yotadi. Hujayra maxsus teka deb nomlanuvchi qalqon bilan qoplangan. Uning tarkibi murakkab bo'lib, oqsil, galaktoza, arabinoza va galaktur kislotasiga ega. Sitoplazmada 1 ta yirik yadro bo'lib, u kattaligi va tashqi tuzilishi bilan farqlanadi. Xromatoforalari turli xil shakl va rangda bo'lib, 3 qavat po'st bilan o'ralgan. Hujayrada kraxmal, xrizolaminarin, ba'zan glikogen va boshqa moddalar zahira sifatida to'planadi.

Dinofitsimonlar sinfi vakillarida puzul deb ataluvchi organoid bo'lib, u vakuolaga o'xshash va ingichka kanal orqali vakuola sitemasi bilan bog'lanadi. Ular odatda, xivchinlar chiqadigan joyda o'rnashadi. Ularning ahamiyati hali ma'lum emas. Ko'pchilik vakillarida murakkab tuzilishga ega stigma, yani ko'zchasi mavjud.

Dinofitsimonlar harakatchan va harakatsiz vegetativ organlarining bo'linishi, zoosporalar yoki aplanosporalar hosil qilish yo'li bilan jinssiz ko'payadi. Ba'zi vakillarida, jinsiy ko'payish – izogamiya kuzatiladi. Ushbu sinf

vakillari tallomining tuzilishiga ko'ra, 5 ta tartibga bo'linadi:

1. Peridiniumlilar – Peridinales
  2. Dinamebidililar – Dinamoebidiales
  3. Gleodinimlar – Gleodinales
  4. Dinokokklilar tartibi (Dinococcales)
  5. Dinotrixlilar – Dinotrichales
1. Peridiniumlilar tartibi (Peridinales)

vakillari issiq suvli dengizlarda tarqalgan bo'lib, biologik xilma-xilligi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ular planktonxolda yashashga moslashgan. O'simliklar bilan simbiot xolda yashasa, molyuskalar tanasida va chuvalchaglarda tekinox'rlilik qiladi. Suvda ko'p miqdorda to'planib, suvga sariq va qizil rang beradi. Sovuq suvli dengizlarda har 1 litrida 200 ming tagacha peridinium bo'lishi mumkin.

Gimnodinium (*Gymnodinium*) turining asosiy xarakterli belgisi – hujayra devori va sovutning bo'lmasligi. U faqat periplast bilan qoplangan bo'lib, hujayrasida sarg'ish rang beruvchi xromatoforlari bor. Hujayraning ekvator qismida ko'ndalang joylashgan egatcha mavjud bo'ladi. Unda 1 ta qayrilgan xivchin zich o'rtnashadi, ikkinchisi osilib turadi.

Issiq suvli dengizlarda yorug chochuvchi tun shamchasi – noktiluka (*Noctiluca miliris*) turi tarqalgan. Unda ham hujayra devori bo'lmaydi. Uning sharsimon, rangsiz vegetativ hujayrasining diametri 2 mm ligi bilan peridiniumdan farq qiladi. Ularda egatchasi bo'lmaydi, uning o'rniga dumga oxshash

o'simta joylashgan. Sitoplazmasi murakkab tuzilgan tanachalardan iborat bo'lib, yorug'lik sochishni ta'minlaydi. Ular yorug'lik sochganda dengiz tarkibidagi fosfor moddasi ta'sirlanib, oq kumushrang yoki havorang yorug'lik taraladi. Bu suvo'ti kurtaklanish yo'li bilan ko'payadi. Zoosporalari gimnodiniumnikiga o'xshash bo'lib, ko'ndalang egat va 1 ta xivchinga ega.

Dengiz, ko'l va chuchuk suvlarda peridinium (*Peridinium*) va tseratsium (*Ceratium*) turkumi vakillari plankton xolda hayot kechiradi. Ularning hujayrasi dorzoventral tuzilishga ega. Hujayra orqa tomondan do'ng (qabariq), qorin tomondan egilgan va botiq shaklda bo'ladi. Suvo'ti qalin sovut bilan qoplangan bo'lib, ustida tukchalar, tikanaklar va pora (teshik)lari bor. Sovutining ustidagi ko'ndalang va uzunasiga ketgan egatcha hujayrani deyarli teng ikkiga bo'ladi. Yuqori qismi sovutning old qismidagi tavaqa bilan qoplangan – epival, pastki – antapikal qismini sovutning orqa - gipoval tavaqasi o'rab turadi. Ko'ndalang va uzunasiga egatcha sovutning yirik qalqonchasi oldida birlashib, qalqon apparatini hosil qiladi. Qalqonda yoriqcha bo'lib, undan ikkita xivchin chiqadi, lentasimon xivchini buralgan ko'ndalang egatga joylashgan. Ikkinchisi hujayra harakat qilganda, orqasidan cho'zilib turadi. Qalqonlarning shakli va soni muxim sistematik

belgi hisoblanadi. Qalqonlar bir-biri bilan qisqa yoki keng choklar bilan ulangan, ularning o'sishi hisobiga sovut yiriklashadi.

Ko'payish vaqtida vegetativ hujayra harakatdan to'xtab, teng ikkiga bo'linadi. Ba'zi turlarida sovut ichidagi protoplast ham teng ikkiga bo'linadi. So'ng sovutning ustida yoriq – tuynukcha hosil bo'ladi, undan yupqa po'st bilan o'ralgan pufakcha chiqadi.

2. Dinamebidililar tartibi (Dinamoebidiales) vakillari dinoflagellatlar va ildizyoqlilar o'rtasida qarindoshlik xususiyatiga ega bo'lib, muxim filogenetik ahamiyatga ega. Dinamyobidium (Dinamoebidium varians) turi tashqi tuzilishi jihatidan amyobaga o'xshash bo'ladi, bir hujayrali suvo'tlar va hayvonlar bilan o'ziqlanadi. Ko'paygan vaqtida gimnodiniumga o'xshash zoosporalar hosil qiladi. Noqulay sharoitda tsista hosil qiladi.

3. Gleodinimlilar tartibi (Gleodinales) palmelloid tuzilishga ega vakillardan iborat. Ular ko'l va botqoqlarda tarqalgan. Hozirda faqat bitta - Gleodinium montanum turi ma'lum. Har qaysi hujayra asosidan po'st bilan o'ralishidan tashqari, yana shilimshiqlangan po'st bilan ham o'ralib, hujayralar to'plamini – koloniyani hosil qiladi. Jinssiz ko'paygan vaqtida egatli zoosporalar hosil qiladi.

4. Dinokokklilar tartibi (Dinococcales)

vakillari chuchuk suv havzalarida va dengizlarda tarqalib, plankton hayot kechiradi. Vegetativ hujayrasi harakatsiz. Jinssiz ko'paygan vaqtida gimnodiniumga o'xshash zoosporalar hosil qiladi. Ba'zi vakillarida aplonospora vujudga keladi. Eng keng tarqalgan turkumlariga Dinococcus, Tetradinium, Stylodinium turkumlari kiradi. Synbidinium turkumi vakillari meduzalar bilan simbioz hayot kechiradi.

5. Dinotrixlilar tartibi (Dinotrichales) vakillarining tallomi ipsimon tuzilishga ega. Dinotriks (Dinotrix paradoxa) dengiz suvlari saqlanadigan akvariumlarda uchraydi. Tallomi biroz shoxlangan ipsimon, hujayrasi yumaloq bo'ladi. Jinssiz ko'paygan vaqtida gimnodiniumga o'xshash zoosporalar hosil qiladi.

Yuqoridagi turlarda tashqari bu sinfning dengiz hayvonlarida hamda diatom suvo'tlarida parazitlik qiluvchivakillari ham mavjud. Pirrofit suvo'tlari kislorod, uglerod, fosfor, azot birikmalarining aylanishida muhim amaliy ahamiyatga ega. Peridinium turlari tuzlarga va suv muhitiga nisbatan sezuvchanligi uchun ulardan bioindikator sifatida foydalanish mumkin. Gymnodinium fuscum turi nordon suvlarda (pH – 7 dan past) o'sishga moslashgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dariyev A. S. va bosh. Botanika o'simliklar anatomiyasi va morfologiyasi – Toshkent – “ILM-ZIYO”-2012
2. Tojiboyev Sh. J. va Naraliyeva N.M. Botanika: Tuban O'simliklar – “Namangan” nashriyoti-2016  
Tojiboyev Sh. J. va Qarshiboyeva N.H. Mikologiya Algologiya – Jizzax “Sangzor nashriyoti” – 2014
3. Великанов Л. Л. Ва бошк. Тубан усимликлар – Тошкент-“Укитувчи”-1995
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Suvo'tlar>
5. <https://arxiv.uz/ru/documents/slaydlar/botanika/pirofit-suvo-tlar>
6. <https://www.encyclopedia.com/science-and-technology/biology-and-genetics/cell-biology/pyrrophyta>